

TA'LIM VA MEDIA: XXI ASR, BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA MEDIA TEXNOLOGIYALAR

Valiyeva Shaxlo Akmalovna

Namangan Davlat Universiteti

Fakultetlararo chet tillar kafedrası o'qituvchisi, 2-bosqich doktorant.

shahlovaliyeva13@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14915804>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tili o'qitishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining mediakompetentligini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari ko'rsatib berilgan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, samarali usullardan namunalar berilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinflar, mediakompetentlik didaktik ta'lim animatsiyalar, interfaol, component, raqamli, samara, dars jarayoni.

EDUCATION AND MEDIA: 21ST CENTURY, INNOVATIVE APPROACHES AND MEDIA TECHNOLOGIES IN TEACHING ENGLISH IN PRIMARY EDUCATION

Valiyeva Shakhlo Akmalovna

Namangan State University

department of Department of foreign languages Inter-Faculty

teacher, 2nd year student of PhD

Annotation: This article presents the pedagogical features of developing media competence of primary students in english language teaching. it also provides examples of modern pedagogical approaches and effective methods.

Key words and expressions: components, tendency, media textbook, interactivity, didactic study, primary school, lesson process, animation.

Kirish. Intellektual asr deb nom olgan XXI asrning kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga xos xarakterli xususiyatlari juda ko'p bo'lib, bugungi kun yoshlari qobiliyat, zehn va tirishqoqlik jihatdan juda yuqori ko'rsatkichlarni qayd etmoqda. Xususan, ular juda erta yoshlaridanoq innetektual imkoniyatlaridan foydalanishga harakat qilishmoqda, shu bilan birga o'zlariga kata e'tibor talab qilishmoqdaki, buning natijasi o'laroq ular tezroq atrofdagi tashqi o'rab turgan olamni tzerqo anglashga urinmoqdalar. Bugungi zamon maktab yoshidagi o'quvchilarning o'tgan asr yoshlaridan eng kata farqi shundaki – ular o'ta yuqori darajada faol va ta'sirchan. Buning natijasida esa ular tez toliqib boladigan va diqqat e'tiborini bir joyga qaratib, aniq bir maqsad ustida uzoq vaqt tura olmaydigan bo'lib qolishgan. Bugungi zamon bolalari tug'ma kuchli zehn va idrok egalari bo'lib, ular yangiliklar olishga juda chanqoq.

Atrofdan sodir bo'layotgan axborotga o'chlik; oynai jahon va kompyuter qarshisida uzoq vaqt o'tirishi, ularni njiq va jahldor qilib qo'ymoqda. Ma'lumki, pedagogic texnologiyalar, ta'lim tarbiya jarayonini eng ilg'or vositalari; metodlar, texnik vositalar, usullarga tayangan holda takomillashtirish tizimi demakdir. Bu esa avvalo o'qituvchi tarafidan yaratiladi. va u o'z navbatida ta'lim tarbiya bosqichlarini o'zaro bog'lash uchun xizmat qiladi. Bu tizimning mazmuni esa quyidagilarni jamlaydi: mazmun va vazifalar; maqsadni avvaldan belgilab olish; ta'lim tarbiya shakllari va vositalarini tayyorlash; o'quvchi yoshlarda rivojlantirishni maqsad qiluvchi ma'naviy sifatlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan darslarni rejalashtirish. Agar ta'limning barcha bo'g'inlari shu yo'sinda tashkil etilsa u o'quvchi yoshlarga chuqur va asosli bilim berish bilan birga keng qamrovli fikrlashga o'rgtadi.

Ta'lim tizimida pedagogik texnologiyalarning asosiy mohiyati shuki; o'quvchilarni fanga qiziqitirib o'qitish va shuningdek, bilimlarni to'liq o'zlashtirishga erishish. Ta'lim jarayonida berilayotgan bilimlarni o'quvchilarning asosiy qismini mukammal o'zlashtirilishi pedagogik texnologiya qo'llashning bosh maqsadi bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogik texnologiyalarning asosini ta'lim tarbiya jarayonining mavjud qonuniyatlariga mamlakatimiz rivojlanishining o'ziga hos xususiyatlari, tarixiy taraqqiyot tajribalari tashkil etadi. Bugungi kun o'quvchilarining uzoq muddatli xotirasi qisqa muddatli xotirasiga nisbatan mustahkamroqdir. Bu kabi layoqat esa kompyuter texnologiyalari asridagi bolalarga eng jadal sur'atdagi axborot oqimidan qolib ketmasliklari va ulkan miqdordagi axborotlarni tezkor qabul qilib uni soniyalar ichida qayta ishlashlari uchun hadya qilingan. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga nazar soladigan bo'lsak, 1-2-sinf o'quvchilari til qoidalarini bilmasalarda ulardan foydalana olishadi; xato qilib qo'yishdan qo'rqmaydilar. Shuningdek, ularda yuz ifodalari va qo'l harakatlarini to'g'ri talqin qila olish qobiliyatlari shakllangan bo'ladi. 3-4-sinflarni 1-2-sinflardan quyidagicha farqlaymiz; uchinchi va to'rtinchi sinf o'quvchilari nisbatan psixologik va fiziologik yetukroq bo'ladilar. Shuningdek ko'proq yolg'iz o'ynashni yoqtiruvchi va narsalarini boshqalarga berishni hojlamaydigan birinchi va ikkinchi sinf o'quvchilaridan farqli uchinchi va to'rtinchi sinf o'quvchilari guruh bo'lib o'ynashni yaxshi ko'rishadi va endi ularda faqat o'zini deyish ancha yo'qolishni boshlaydi. Yana bir e'tiborli tarafi shundaki olti yeti yoshli bolalar ma'lumotlar ma'nosini tushunmasalarda, ularni o'z-o'zidan yodlab oladilar.

Yuqoridagi fikrlarni e'tiborga olgan holda boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga chet tilini o'rgatayotganda avvalo grammatikani tushuntirishdan boshlamaslik kerak. Agar bunday holat sodir etiladigan bo'lsa o'quvchilar boshidanoq charchab qolishlariga va shu bilan birga til o'rganishga bo'lgan ishtiyoqlarini kamaytirishiga sababchi bo'linadi.

Barcha fanlar qatori chet tilini, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda o'qitish katta mas'uliyatni va qiyin jarayondir. Bu jihatlarni hisobga oladigan bo'lsak, boshlang'ich sinflarda Ingliz tilini qiziqarli va sermazmun o'rgatish uchun quyidagi bir nechta innovatsion metodlardan foydalanish mumkin: ko'z bilan ko'rib yodda saqlash – bunda ko'p sonli o'quvchilar ko'rgan buyumlarini eshitgan ma'lumotlaridan ko'ra ko'proq esda saqlab qolishadi. Shuning uchun dars jarayonida rang-barang ko'rgazmali qurollardan, suratlar, kundalik hayotimizda eng ko'p qo'llaydigan narsa buyumlarga o'rgatilayotgan yangi so'zlarni yozib o'rgatish va ular ishtirokida turli xila gaplar tuzish kerak. Buning natijasida har kuni ishlatayotgan bu buyumlarga doim ko'zga tushib turgani va qo'llanganligi uchun, ular beixtiyor o'rganib olishadi.

Navbatdagi uslubda esa yodda saqlanishi va tushunishi qiyin bo'lgan so'zlarni qo'shiq va she'rlar orqali kuylab o'rgatish uslubi bo'lib, bu juda samarali hisoblanadi va so'zimizning isboti o'laroq, Ingliz tilida Alifboni qo'shiq qilib o'rganishni yodalashdan ko'ra samaraliroq ekanini ko'rsata olamiz. So'nggi uslubimiz esa o'zaro raqobat bo'lib, grammatika va so'z boyligini o'stirishga yordam beruvchi o'yinlarni o'z ichiga oladi. Bu jarayonda o'quvchilar dars jarayonida o'qituvchi bergan rang-barang topshiriqlarni bajaradi va natijada o'quvchilar o'rtasida raqobat paydo bo'ladi. Natijada o'quvchilarda darsga bo'lgan til o'rganishga bo'lgan qiziqish yanada ortadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Mashxur Xitoy faylasufi insonning barcha qiziqishlari raqabat orqali vujudga kelishini bir necha bor ta'kidlab o'tgan. Galdagi uslubimiz aralash metod bo'lib bu jaryonda bir nechta texnikalarni beixtiyor birlashtirib olib boriladi. Bunda o'quvchilar bir vaqtning o'zida ham

o'yin o'ynab rasm chizishlari, qo'shiq aytib turli harakatlar bilan o'rganilgan so'zlarni ko'rsatib berishlari mumkin. Texnikaning eng afzal jihati ham uning rang -barangligida. O'qituvchi bu orqali birgina narsa bilan cheklanib qolmaydi. Shuningdek multfilimlar va turli xil qiziqarli o'yinlar orqali ingliz tilini o'rgatish ham mislsiz natijalar beradi[1.76].

So'nggi paytlarda biz media degan so'zga ko'p bora duch kelib qolyapmiz. Aslida, o'zi media nima, nima maqsadlarda foydalanilyapti, uning foydali zararli taraflari nimalardan iborat ekanligini keling bir ko'rib chiqaylik, bunda albatta manbalarga murojaat qilamiz. Media bu-biz uchun ma'lum o'sha videolar, audiolar, taqdimotlar, matn ko'rinishidagi axborotlarni tarqatish mumkin bo'lgan barcha qurilmalarni o'z ichiga oladi.

Media atamasi ilk bor Toronto aloqa nazariyasi maktabining asosiy atamasi sifatida paydo bo'lgan bo'lib, lotin tilida medium so'zining ko'plik shakli bo'lib, "o'rta" yoki "vositachi" degan ma'nolarni bildiradi. Zamonaviy asrimizda aloqa vositalari juda keng tushuncha bo'lib, axborot ko'rinishidagi xabarlarini insonlarga ma'lum bir ko'rinishda yetkazish uchun xizmat qila oladigan texnologik vositalar va aloqa usullarining barcha majmuini qamrab oladi.

Shuningdek, biz media matn, ommaviy axborot vositalari, media-makon, media-kompetentsiya, media-ma'lumotlar, media-xabar, mediaga bog'liqlik, yangi ommaviy axborot vositalari, muqobil ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy media kabi shunga o'xshash atamalarni ham uchratishimiz mumkin.

Media shu qadar keng qamrovli so'z bo'lib, u barcha aloqa kanallarini; eng kichik bozma qog'ozdan toki raqamli ma'lumotlargacha bo'lgan ulkan ma'nolarni o'zida aks ettiradi. Zamonaviy til bilan aytadigan bo'lsak, ommaviy axborot vositalari yangiliklari, san'at ta'lim mazmuni va insonlarga yetib borishi yoki ta'sir eta olishi mumkin bo'lgan har qanday turdagi axborot; jumladan, televizor, radio, kitoblar va jurnallar, internet mediani bir ko'rinishidir.

Tarixiy ma'nosini olib qaraydigan bo'lsak "media" so'zi XVI asrda ikki dunyoni Ingliz tilida paydo bo'lishining sababi moddoy va ma'naviy dunyo orasida bir-biriga bog'lovchi bo'lib xizmat qiladigan insonlarni belgilashdan iborat edi. Oradan bir asr o'tib bu tushuncha falsafa tiliga ko'chib o'tdi va uni endi jamiyatda kezib yuruvchi axborotlarga ta'sir etuvchi va yangi ijtimoiy ma'nolarni shakllantiruvchi muhit tarzida talqin etildi. XVIII asrdan buyon media tushunchasi qo'llanila boshlandi va bizning birgina haqiqiy chegaramiz-efir, boshqacha so'z bilan aytganda: ommaviy axborot vositalaridir. Mislsiz kengayib borayotgan ommaviy axborot vositalari chinakamiga yashash joyiga aylanib ulgurdi. Cove Marshall McLuhan shunday ta'kidlaydi: Bu ajralmas o'z-o'zini tashkil etuvchi modda bo'lib, qon tomirlari kabi butun ijtimoiy organizmni, hayotimizning barcha jabhalarini qamrab oladi, u endi hayotimizning ajralmas bo'lagidir. Shuningdek ayrim vaqtlarda insonning o'zi ommaviy axborot vositasiga aylanadi.

Ma'lumki kompetensiya so'zi lotinch "compote" so'zidan olingan bo'lib (erishaman, loyiqman, mos kelaman ma'nosini anglatadi)-kishilar tomonidan egallangan ma'lum bir bilim, ko'nikma va malakalar majmuasini bildiradi. Kompetensiya tushunchasi yangi tushuncha bo'lib, 1960-yillar yakuni, 1970-yillar boshlaridan keng ko'lamda qo'llanila boshladi. Kompetensiya-muayyan sohada samarali faoliyat olib borish uchun kerak bo'ladigan kadrning ta'limiy tayyorgarligiga qaratilgan talab demakdir. Kompetensiya davlat tasarrufida bo'lgan, avvaldan belgilangan ma'lum ijtimoiy talab bo'lib, o'quvchilarning ma'lum sahada samarali faoliyat yuritishi uchun kerak bo'ladigan ta'limiy tayyorgarlik darajasiga nisbatan qo'yiladi. Kompetensiyalarni yanada rivojlantirishga qaratilgan ta'lim-o'quvchilarga egallagan bilimi,

ko'nikmasi va malakalarini o'zining shaxsiy va kasbiy, shuningdek ijtimoiy faoliyatlarida amaliy foydlana olish imkonini beradi.

Kompetensiyaviy yondashuvga aylangan ta'limning eng kata yutug'i bu-o'quvchilarda mustaqillik, jamiyatda faol o'rinni egallash, tashabbuskorlik, mediamanbalardan o'z faoliyatida oqilona foydalanish, ongli ravishda kasb-hunar tanlab olish, sog'lom raqobat va shu bilan birga butunmadaniy ko'nikmalarni hosil qiladi. Qolaversa, har bir o'quv fanini ta'limtizimida o'zgartirish jarayonida o'quvchilarda, shu fanning o'ziga xos jihatlari, mazmunidan kelib chiqqan holda esa, shu sohaga tegishli muqobil kompetensiyalar ham shakllantirilib boriladi.

Tahlil va natijalar. Kompetensiyaviy yopndashar ekanmiz hozirgi zamon jamiyatimiz va ta'limning asosiy sharti kompetentlikni shakllantirishni talab etadi. Bunday talabni talabni esa bevosita o'qituvchi va pedagoglarga ham tegishlidir. Bugungi rivojlanayotgan dunyo ta'limini yanada yangilashning eng muhim yo'nalishi ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv orqali real hayotni butun dunyoni, kasbiy faoliyatni butun tizimli ko'rish, unda uzluksiz tizimli faoliyat olib borish, eng so'ngi muammo va topshiriqlarni qiyinchiliklarsiz hal etish tajribasini hosil qilishdan tashkil topadi.

Ta'lim tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogikaning eng asosiy muammolaridan biri esa – eng asosiy kompetensiyani aniqlab olish. Huddi shunday bosh kompetensiyani aniqlab olish, dunyo pedagoglari tajribalarini o'rganish, an'anaviy O'zbek pedagogikasi me'yorlaridan kelib chiqadigan bo'lsak, bu sohada fikrlar juda xilma xil bo'lib, hali ham o'z yechimini topmagan masalalar ko'plab topiladi.

Ko'plab izlanishar natijasi o'laroq, mediata'lim o'quvchini erkin fikrlashga, ijodkorligini yanada oshirishga axborotlarni qabul qilish, ularni qayta ishlash, jamlash va yakuniy xulosa chiqarishga o'rgatadi. Ta'lim berish jarayonida o'qituvchilar qay darajada mediata'limga e'tibor brib o'quvchilarga bilim berish yo'lida samarali foydalanishsa, albatta, yosh avlodning dunyoqarashini boyitishga, intellektual salohiyatini shu darajada rivojlanishiga yordam beradi. Zamonaviy dunyoyimizda mediata'lim rivojlanish jarayoni deb ta'rif berilsa ayni haqiqatni ta'riflagan bo'lamiz. Biz bilamizki, ommaviy axborot vositalari o'zaro munosabat madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan, uning yordamida insonlar ijodiy, tanqidiy fikrlash, idrok etish va talqin etish, media matnlarni esa tahlil eta olish, ularni baholash va shuningdek, o'zini o'zi erkin ifoda qila olishning turli shakllarini o'rganadi.

Mediata'limning asosiy maqsadi mediasavodxonlikni shakllantirishdan iborat, chunki savodxonlikning aynan shu turi insonlarga axborot maydonida televideniye, radio dasturlari, video materiallari, matbuot va internet orqali kirib kelayotgan media-madaniyatning tilini tushunishga, axborotlarni to'g'ri tahlil etish orqali qabul qilishga va ulardan keng va faol foydalanish uchun yordam beradi. Media savodxon odam jamiyatdagi median tahlil eta olish va baho berish qobiliyatiga egadir.

Media kompetentlik-bu insonlarga turli shakllarda kelayotgan media matnlarni tanlash, foydalanish, tahlil qilish, ularni baholash, yaratish va uzatishga tayyor ekanligini namoyon etadigan sifatlari, turlari va shakllari, jamiyatdagi ommaviy axborot vositalari faoliyatining jamiki jarayonlarini tahlil etishdir. Bu tushuncha juda ko'p qirraki va keng qamrovli bo'lib, bir vaqtda u bilimni ham, faoliyat usullarini ham, shaxsiy xususiyatlarini ham ifodalaydi. Ilmiy sohalarga nazar solar ekanmiz, media kompetentlik ham ilmiy soha ham fanlar aro xususiyatlarga egadir. Mediakompetentlikning o'ziga hos vazifalari juda ko'p bo'lib, buning sababi uni o'rganish bir vaqtning o'zida ham kasbiy, ham ijtimoiy va kundalik hayotimizdagi

eng dolzarb vazifalardir.

Mediakompetentlik media-ta'lim doirasida vijudga kelgan ikki tushuncha media-savodxonlik va media-madaniyatga asoslanadi. Ayrim hollarda mediakompetensiya mediasavodxonlikning sinonimi tarzida tushuniladi: ya'nikim yetib kelayotgan xabarlardan foydalanish, ularni tahlil qilish va erkin muloqot qilish qobiliyati shakllaridir. Ayni paytda jahon pedagogikasida bu atama allaqachon faollik bilan foydalanib kelinmoqda. Eng avvalo o'quvchilarning mediakompetentligini paydo qilish uchun, o'qituvchi ham matbuotga oid malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi va barcha yoshdagi o'quvchilarga mediata'lim bilimini berishi lozim.

Munozara. Zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanishi insonlarning ommaviy axborot vositalaridan foydalanish usullarni tubdan o'zgartirib yubordi. Mediasavodxonlik bugungi kunda dolzarb masala darajasiga yetib chiqdi, buning sabablaridab biri esa avvalo ommaviy axborot vositalarining eng irinchi galda onlayn shaklda yaratilishi va qabul qilinishidir. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni axborotni aqlan istemol qilishlari uchun eng kerakli ko'nikmalarni ularga o'rgatib, kelayotgan yangiliklarni baholay olish, xavfsiz raqamli suhbatlarda ishtirok etish qobiliyatini shakllantirishga mediakompetentlik yordam beradi. Agar o'qituvchi yordami bo'lmasa o'quvchilar qaysi axborot va qaysi manbalar ishonchli ekanligini qanday bilib olishadi? Ular tinimsiz Youtube tomosha qilmoqda, yangiliklarni o'qimoqda, tasvirlarni kuzatmoqda va ular bu axborotlarning haqiqiy yoki soxta ekanligini ajratish uchun ko'nikmaga muhtoj bo'lib borishmoqda. O'quvchilarning ommaviy axborot vositalarini tahlil qilishga va savol berishni o'rgatish kerak: ularda muallif kim, maqsadi nima?

Boshqa insonlar bu habarlarni qanday talqin qilishmoqda? Ularning asosi bormi, manbasi berilganmi, Grammatik va imloviy xatolari bormi? Media ta'lim berish natijasida mediasavodxonlik o'quvchilarga faqatgina zamonaviy axborot bilan tanishish, yangiliklarni osonlik bilan tanqidiy qabul qilish bilan chegaralanib qolmaydi. Endi o'quvchilar tez va qiyinchiliklarsiz saytlarga kirish, axborotlardan foydalanish va shu kabi bir nechta vazifalarni bajara olishmoqda [4.89].

Obyektning tasvirini haqiqatning o'zidan kam emasligini aytib o'tadi. Eng so'nggi ma'lumotlarga ko'ra internet orqali tarqatilayotgan axborotlarning deyarli yarmi zo'ravonlik yozvuzlik, qolgani esa axloqsizlikni targ'ibotiga xizmat qilmoqda, chorak qism axborot esa yolg'on uydurma, uchdan bir qismi esa umuman haqiqatdan batamom yiroq ma'lumotlardir. Bu esa o'quvchi yoshlar ongiga buzg'unchi g'oyalar, zararli odat va ko'nikmalar ,milliy urf odatimizga zid axborotlarni olib kirib zarar yetkazmoqda. Medianing shu kabi salbiy tomonlari juda ko'p. Yurtimiz aholisi o'ttiz olti milliondan oshirib borayotgan bir paytda ,O'zbekistonda media foydalanuvchilari soni soat sayin ortib bormoqda. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining bergan so'nggi ma'lumotlariga ko'ra, Internet foydalanuvchilari ayni paytda yigirma ikki million kishiga yetgan, ularning o'n to'qqiz millioni esa telefon orqali muloqot qilmoqdalar [5.243].

XULOSA

Ayni paytda respublikamizning ko'p sonli ta'lim muassasalarida mediasavodxonlik dars sifatida o'qitilib kelinmoqda: O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Qarshi davlat universiteti, O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti, Samarqand davlat chet tillari universitetlarini jurnalistika va boshqa bir qancha yo'nalishlarida mediasavodxonlik va

axborot madaniyati fan sifatida o'qitilib kelinmoqda [6/87].

Chet tili o'qitishning qay darajada keng imkoniyatlar berishi haqida to'liq ma'lumot berib, o'quvchilarni qiziqtirish lozim. Ammo o'quvchilar, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari bosimning hech qanday turiga chiday olmaydi va albatta qarshilik ko'rsatadi. O'quvchilarga chet tilini bilish dunyo bo'ylab sayohat, istalgan xorijiy davlatlarda ta'lim olish imkonini berishi haqida to'g'ri tushuncha berilsa, ularda tilni bilishga xohish payda bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda Ingliz tilini o'rganishquyidagi keltirilgan natijalarni beradi:

1. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga muloqot qilish qobiliyatini shakllantiradi. Shu bilan birga suhbatdoshini tinglash, suhbat qilish va uni qo'llab quvatlash qobiliyatini hosil qiladi.

2. O'quvchilarning shakllanishiga xususan kitoblar bilan, ma'lumotlar bilan ishlash qobiliyatini hosil qiladi.

3. Axborot texnologiyalaridan keng va samarali foydalanishga yordam beradi.

Eng avvalo, Ingliz tili qoidalarini ularga kutilmaganda aytish kerak, shunda o'quvchilar o'zlari uchun umuman yangi vaziyatdan qanday chiqishni o'rganishadi. Bu esa boshlang'ich sinflarda Ingliz tilini o'qitishning muhim vazifasi bo'lgan o'quvchilarning hissiy va ijtimoiy rivojlamtiruvchi vazifasidir. Qolaversa bu davrda darslarni juftlik guruh bo'lib ishlarsiz tashkil etilmasa bo'lmaydi. Bu esa o'zaro bir-birini fikrini hurmat qilish, hamkorlik va bag'rikenglik, munozaralar olib borish nizoli holatlardan chiqish-ya'ni muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Vaholanki ayni shu yoshdagi o'quvchilar bilan ishlayotgan o'qituvchilar yoshi kichik ammo allaqachon shaxs bo'lib qolgan o'quvchilar bilan ishlayotganliklarini doim yodda tutishlari kerak[7/67].

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. Jalolov J.J. Ingliz til o'qitish metodikasi: Chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. – T.: O'qituvchi, 2012. – 432 b.
2. Гальскова Н.Д., Никитенко З.Н. Теория и практика обучения иностранным языкам. Начальная школа: Методическое пособие. – М.: Айрисс-пресс, 2004. – 240 с.
3. O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimining Davlat ta'lim standartlari. – Xalq ta'limi. – № 4. – 2013. – B. 4-32. .
4. Zhilavskaya, I. V. (2009). *Mediaobrazovanie molodezhnoj auditorii* [Media education for youth audience]. Tomsk: TIIT (in Russian) [Жилавская, И. В. (2009). *Медиаобразование молодежной аудитории*. Томск: ТИИТ]
5. Borchers, J.O. (1999) "Electronic Books: Definition, Genres, Interaction Design Patterns". *Conference on Human Factors in Computing Systems, CHI99 Workshop: Designing Electronic Books*, Pittsburgh, May
6. Bostock, S. (1998) *Courseware Engineering - an overview of the courseware development process*. University of Keele
7. Sh.Valiyeva "Requirements for the structure, content and design of multimedia electronic textbooks" Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA issue 04, volume 96 published April 30, 2021
8. NAMLE: Core Principles of Media Literacy Education in the United States // <http://www.namle.net/core-principles/namle-cpmle-w-questions.pdf> (дата обращения: 06.09.2018).